JIZZAX VILOYATI DO‘STLIK TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 22 - dekabr 352-3-47-Q/22 Do‘stlik tuman hokimligi

Do‘stlik tumanidagi Barokat va Navqiron ko‘chalarini bog‘lovchi ko‘chaga sun’iy yo‘l notekisligi yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 28-son, 645-modda), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini hamda tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi Barokat va Navqiron ko‘chalarini bog‘lovchi ko‘chaga ilovaga muvofiq sun’iy yo‘l notekisligi yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

2. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Muxtorov)ga ilovaga muvofiq yo‘l belgisini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (Z.Anarboev) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda

tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

5. Ushbu qaror “Do‘stlik hayoti” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Tinchlikov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **SH.Darvishev**

Do‘stlik tuman hokimining
2022 yil 22 dekabrdagi
352-3-47-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi ichki yo‘llarga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari bo‘yicha

MA’LUMOT

T/R	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni	Yo‘l belgisi nomi
1.	Barokat va Navqiron ko‘chalarini bog‘lovchi ko‘cha	PK 160, PK 225	2	1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi
JAMI:			2	